

INGLIZ TILI DARSLARIDA VIKTORINA SAVOLLARIDAN FOYDALANISH

Bozorova Diloromxon Ro'zimatovna
Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani
39-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Ingliz tili fani o'qituvchisi

Viktorina – biror mavzu yuzasidan o'tkaziladigan nazorat savollari. Bunda savollar tayyorlanish uchun uyga berilmaydi. Ular kartochkalarga yoziladi va dars jarayonida bajariladi. 1-jamoa savol, 2-jamoa esa javob beradi. Bunday mashqlar o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning eshitish va tinglash qobiliyatini o'stirish. Bu usul orqali o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri savol berishni ham o'rganadilar. Masalan, «Great Britain» mavzusi o'tib bo'lingach, quyidagicha viktorina savollarini (Quiz Cards) tuzish mumkin:

1. Why did the Romans call Britain «Albion»?

Answer: «Alba» means «white» in Latin, and the white chalk cliffs were the first things the Romans saw when they came on the southern coast of Britain.

2. Which parts of Great Britain are the centres of the woollen and cotton industry?

Answer: Yorkshire is the centre of the woollen industry. The centre of the cotton goods industry is Manchester.

Viktorina savollarini so'zlar ta'rifi bo'yicha ham tuzish mumkin. Bunda o'quvchi to'g'ri ta'rifni topishi kerak bo'ladi. Bu usulning afzalligi shundaki, kartochkalar o'quvchilar soniga qarab tarqatiladi va barcha o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, quyidagi fe'llarga ta'rif bering:

Card 1

to preserve

1. to save

2. to finish work early

3. to prepare

Card 2

to paraphrase

1. to speak clearly

2. to express a thought in another way

3. to divide a long text into smaller

Matnlarga mos savollar tuzish mumkin. Bu kartochkalar True-False (to'g'ri-noto'g'ri) shaklida tuziladi.

Masalan:

Card 1

Alfred Nobel was from Sweden.

Answer: False. He was Norwegian.

Card 2

Marie Curie, her daughter Irine Joliot-Curie and their husbands Pierre and Frederic all won Nobel Prizes.

Answer: True.

Antonim soʻzlar mavzusida quyidagicha viktorina kartochkalari tayyorlash mumkin:

Card 1

Which word is the antonym of the word cheerful?

1. happiness 2. hope 3. dullness

Quyidagi kartochkalar shartlari mimika yoki harakatlar orqali bajarilgani bois mime cards deb ataladi. Bunday mashqlar soʻz birikmalari tushuntirilgach, oʻtkazilishi mumkin:

Card 1

- 1. drive the car*
- 2. sweep the floor*
- 3. clear the table*
- 4. dial a number*

Card 2

- 1. take a picture*
- 2. pack a suitcase*
- 3. use a phone*
- 4. have a headache*

Card 2

Which word is the antonym of the word grief?

1. sadness 2. joy 3. sorrow

Ingliz tili va boshqa fanlardan olingan bilimlarni o‘zaro bog‘lab, astronomiya fani bo‘yicha quyidagicha viktorina savollarini tu zish mumkin:

Card 1

What is «The Milky Way»?

Answer: Our galaxy.

Card 2

Which planet is nearest the sun?

Answer: Mercury.

Card 3

Which planet is closest to Earth?

Answer: Mars.

Viktorina kartochkalarini darslarda qo‘llash o‘quvchilarni o‘ylashga, axborot olishga, axborot berishga, birgalikda ishlashga o‘rgatadi. Eng muhimi, dars samaradorligini oshiradi.